



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI  
RIXSIYEVA SHAHZODA ODILJON QIZI

“TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR – YOSHLAR NIGOHIDA” TALABALAR  
ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA NAMUNALI ISHTIROKI UCHUN

# TASHAKKURNOMA

BILAN TAQDIRLANADI

18 fevral, 2026

# KOREYS XALQI ALIFBOSI HANGULNING (한글) YARATILISH TARIXI

*Rixsiyeva Shahzoda Odiljon qizi*

*Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili yo'nalishi IV bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Rustamboyev Islomjon Doniyor o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Koreyaning milliy alifbosi – Hangulning yaratilish tarixi, uning ilmiy va fonetik asoslari, shuningdek, jamiyat tomonidan qabul qilinish jarayoni tahlil qilinadi. XV asrda Qirol Sejong Buyuk tashabbusi bilan yaratilgan Hunminjeongeum koreys xalqining savodxonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qilgan. Maqolada alifboning artikulyatsion va falsafiy tamoyillari, bo'g'inli yozuv tizimi xususiyatlari hamda milliy identitet shakllanishidagi o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Hangul, Hunminjeongeum, Qirol Sejong, koreys alifbosi, fonetik tizim, Choson sulolasi, milliy identitet.

**Аннотация:** В статье рассматривается история создания корейского национального алфавита – хангыль, его научные и фонетические основы, а также процесс общественного признания. Созданный в XV веке по инициативе короля Седжона Великого, Хунминчжоньым способствовал росту грамотности и социальной справедливости в Корее. Анализируются артикуляционные и философские принципы построения алфавита, особенности слоговой структуры письма и его роль в формировании национальной идентичности.

**Ключевые слова:** хангыль, Хунминчжоньым, король Седжон, корейский алфавит, фонетическая система, династия Чосон, национальная идентичность.

**Annotation:** This article examines the historical background of the Korean national alphabet, Hangul, its scientific and phonetic foundations, and the process of its social acceptance. Created in the 15th century under the initiative of King Sejong the

Great, Hunminjeongeum significantly contributed to increasing literacy and promoting social equality in Korea. The study highlights the articulatory and philosophical principles of the alphabet, its syllabic writing system, and its role in shaping Korean national identity.

**Keywords:** Hangul, Hunminjeongeum, King Sejong, Korean alphabet, phonetic system, Joseon Dynasty, national identity.

Koreyaning milliy alifbosi 한글 (Hangul) Koreya tarixida noyob ahamiyatga ega bo'lgan ixtiro hisoblanadi. XV asrning boshlarida Choson sulolasi davri mamlakat yozma madaniyati asosan Xitoy belgilari yani "iroglif"ga tayangan [1, - B.183.]. Bu esa oddiy xalq uchun yozishni o'rganishni qiyinlashtirgan, chunki Xitoy yozuvi murakkab bo'lib, uzoq vaqt va katta kuch talab qilardi. Natijada, aholining katta qismi o'qish va yozishni o'rganishi qiyin ish edi. Bu esa bilim va axborotning keng tarqalishiga to'sqinlik qilgan. Choson sulolasining to'rtinchi hukmdori yaratilgan Qirol Sejong Buyuk (세종대왕) va Jipyeongjeon Lorties zalining olimlari tomonidan 1443-yilda yangi, soddalashtirilgan va fonetik tizimga asoslangan alifbo yaratishga qaror qildi [3, - B.76.]. Bu koreys alifbosi Hunminjeongeum (훈민정음) ("xalqqa o'rgatadigan to'g'ri tovushlar" deb nomlangan. Koreys alifbosining yaratilishi e'lon qilinishi bilan bir qatorda, Hunminjeongeum, Chong In-ji va boshqa olimlar 33 bobdan iborat alifboga oid sharhlar to'plamini nashr etishdi. 1443-yilda yaratilgan koreys alifbosi 1446-yilda "Hunminjeongeum" nomi bilan rasmiy ravishda e'lon qilindi. Ushbu asar nafaqat yangi yozuv tizimini taqdim etdi, balki uning ilmiy asoslarini ham batafsil tushuntirib berdi. Hunminjeongeum kitobi o'z tuzilishi va nazariy asoslari jihatidan o'sha davr uchun nihoyatda mukammal ilmiy asar hisoblanadi. Asarda 11 ta unli harf tizimi bayon qilingan bo'lib, ularning yaratilish tamoyillari fonetik va falsafiy qarashlarga asoslangan. Undosh harflar va ularning xususiyatlari haqida ham alohida izohlar berilgan.

Jumladan, Hunminjeongeum kitobining Chongsonghae bo‘limida so‘z oxirida keladigan undosh tovushlar (yakuniy tovushlar) haqida tushuntirishlar berilgan. Bu bo‘limda tovushlarning talaffuzi va ularning fonetik xususiyatlari izohlangan. Bu esa Hunminjeongeum yozuvining tizimli va qat’iy qoidalarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Hunminjeongeum kitobining Yongjare qismida esa yangi yaratilgan harflar yordamida so‘z yasash misollari keltirilgan bo‘lib, bu amaliy qo‘llanmani o‘z ichiga oladi. Hunminjeongeum asari asosiy matnning 4 bobdan, 29 bo‘limdan iborat izoh va sharhlari olim Chong In Ji tomonidan yozilgan muqaddimadan iborat bo‘lib, jami 33 bobni tashkil etadi. Unda harflarning yaratilish prinsiplari, ularning ilmiy asoslari va qo‘llanish qoidalari batafsil yoritilgan.

Hunminjeongeum (훈민정음) dunyo yozuv tizimlari orasida o‘zining ilmiy asoslanganligi va mukammal tuzilishi bilan alohida ajralib turadi. U fonetik tamoyilga asoslangan alfavit bo‘lib, har bir belgi aniq bir tovushni ifodalaydi. Bu jihati bilan u ieroglifik yoki murakkab belgilar tizimidan tubdan farq qiladi [2, - B.148.]. Hunminjeongeum (훈민정음) yaratilish jarayonida tovushlarning artikulyatsion xususiyatlari, ya’ni nutq organlarining harakati asos qilib olingan.

Dastlab Hunminjeongeum 28 ta harfdan iborat bo‘lgan: 17 ta undosh va 11 ta unli. Hozirgi kunda ulardan 24 tasi faol qo‘llaniladi. Undosh harflarning shakli talaffuz paytida og‘iz bo‘shlig‘idagi nutq organlarining holatini aks ettiradi. Masalan, ㄱ harfi tilning orqa qismi yumshoq tanglayga tegish holatini, ㅋ harfi til uchining yuqori tishlarga tegishini, ㆁ esa lablarning yopilishini ifodalaydi. Bu esa harflarning tasodifiy emas, balki ilmiy kuzatuv va fonetik tahlil asosida yaratilganini ko‘rsatadi. Unli harflar esa sharq falsafasidagi uch asosiy unsur – osmon (•), yer (—) va inson ( | ) timsollariga asoslangan. Ushbu uch elementning kombinatsiyasi orqali boshqa unlilar hosil qilingan.

Masalan, ㅏ, ㅑ, ㅓ, ㅕ kabi unlilar shu asosiy belgilar birikmasidan shakllangan. Bu tizim Hunminjeongeumning nafaqat fonetik, balki falsafiy va kosmologik asosga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Hunminjeongeumning yana bir muhim xususiyati – bo'g'inli yozuv shakliga egaligidir. Harflar alohida yozilmaydi, balki boshlang'ich (초성), o'rta (중성) va zarur hollarda oxirgi (종성) tovushlardan iborat bo'g'in bloklari shaklida joylashadi. Masalan, “한” bo'g'ini ㅎ (boshlang'ich undosh), ㅏ (unli) va ㄴ (oxirgi undosh) harflaridan tashkil topgan. Bu tizim yozuvni ixcham va vizual jihatdan tartibli qiladi.

Shuningdek, Hunminjeongeumning o'rganishdagi soddaligi ham uning muhim afzalliklaridan biridir. Murakkab ierogliflardan farqli ravishda, Hangul qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishi mumkin. Tarixiy manbalarda hatto savodli inson bir necha kun ichida alifboni o'rganishi mumkinligi ta'kidlangan. Bu esa savodxonlik darajasining tez oshishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Lingvistik nuqtai nazardan, Hunminjeongeum tovush tizimini aniq va izchil ifodalashi bilan ajralib turadi. U koreys tilining fonologik tizimiga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, talaffuz va yozuv o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Shu sababli ko'plab tilshunos olimlar Hunminjeongeumni dunyodagi eng mukammal va ilmiy asoslangan yozuv tizimlaridan biri sifatida e'tirof etadilar [6, - B.66.]. Shunday qilib, Hunminjeongeum o'zining fonetik aniqligi, ilmiy asoslangan tuzilishi, falsafiy mazmuni va amaliy qulayligi bilan Koreya madaniy merosining eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Keyinchalik Hunminjeongeum (훈민정음) nomi Hangul (한글) ga o'zgartirilgan.

Hangul yaratilganidan so'ng uning jamiyat tomonidan darhol qabul qilinishi oson kechmagan. XV asr Choson jamiyatida siyosiy va madaniy elita asosan Xitoy yozuvi – hanjadan foydalanar edi. Xitoy ierogliflari ilm-fan va davlat boshqaruvining asosiy yozuv tizimi bo'lib, u yuqori tabaqa vakillarining bilim darajasini ifodalovchi vosita

sifatida qaralgan. Shu sababli yangi, soddalashtirilgan yozuv tizimining paydo bo‘lishi ayrim amaldorlar va olimlar tomonidan salbiy qabul qilindi. Hangul esa “oddiy xalq yozuvi” sifatida baholanib, ayrim ziyolilar tomonidan yetarlicha jiddiy qabul qilinmadi. Ular yangi alifbo davlat boshqaruvi va rasmiy hujjatlar uchun mos emas, deb hisoblaganlar. Natijada Hangul dastlab asosan ayollar, odiy xalq va past tabaqa vakillari orasida keng tarqaldi, biroq rasmiy hujjatlarda hanja ustunligicha qolaverdi. Qirol Sejong vafotidan keyin ham Hangulning mavqei mustahkamlanishi qiyin kechdi. Ba’zi hukmdorlar davrida Hanguldan foydalanish cheklangan, hatto ayrim davrlarda rasmiy yozishmalarda undan foydalanish taqiqlangan holatlar ham kuzatilgan. Bu esa alifboning to‘liq ommalashishini bir necha asrga kechiktirdi. Shunga qaramay, Hangul o‘zining soddaligi va qulayligi tufayli xalq orasida asta-sekin keng tarqaldi. XIX-XX asrlarga kelib, milliy ong va mustaqillik harakatlari kuchaygan davrda Hangul koreys milliy o‘zligining muhim ramziga aylandi. Aynan shu davrdan boshlab u rasmiy yozuv tizimi sifatida to‘liq e’tirof etildi. Shunday qilib, Hangulning yaratilishi buyuk ilmiy yutuq bo‘lgan bo‘lsa-da, uning jamiyat tomonidan to‘liq qabul qilinishi murakkab va uzoq jarayon bo‘lgan [9, - B.195.]. Bu jarayon Koreya tarixidagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir

Yaponiya mustamlakachiligi davrida (1910-1945) koreys tilini va yozuvini saqlab qolish milliy ongni himoya qilishning muhim vositasiga aylandi. Shu tariqa Hangul nafaqat lingvistik birlik, balki milliy qarshilik va madaniy mustaqillik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ldi.

Koreys alifbosi – Hangulning yaratilishi insoniyat yozuv tizimlari tarixida muhim va noyob hodisa hisoblanadi. 1443-yilda Qirol Sejong Buyuk tashabbusi bilan yaratilgan ushbu yozuv tizimi 1446-yilda “Hunminjeongeum” nomi bilan e’lon qilinib, xalqning savodxonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qilgan. Hangulning ilmiy asosda, fonetik va artikulyatsion tamoyillarga tayangan holda yaratilgani uni boshqa ko‘plab yozuv tizimlaridan ajratib turadi. Dastlab jamiyatning

yuqori tabaqalari tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmagan bo‘lsa-da, Hanguk asta-sekin xalq orasida keng tarqaldi va Koreya madaniyatining ajralmas qismiga aylandi.

U nafaqat yozuv vositasi, balki milliy o‘zlik, mustaqillik va madaniy meros ramzi sifatida shakllandi. Ayniqsa, mustamlakachilik davrida Hanguk koreys xalqining til va madaniyatini saqlab qolish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda Hanguk Koreya Respublikasining rasmiy yozuv tizimi bo‘lib, har yili 9-oktabr kuni “Hanguk kuni” sifatida nishonlanadi. Hunminjeongeum qo‘lyozmasi esa YUNESKO tomonidan Jahon hujjatli merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu esa Hangukning nafaqat milliy, balki global madaniy meros sifatidagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Shunday qilib, Hanguk Koreya tarixida oddiy yozuv tizimidan milliy identitet va madaniy merosning muhim tarkibiy qismiga aylangan noyob hodisa hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. JAHON TARIXI (Osiyo mamlakatlari rivojlangan o‘rta asrlar tarixi): Uslubiy qo‘llanma / I.D. Rustamboyev. – Toshkent: «ZUXRO BARAKA BIZNES» nashriyoti, 2026.
2. Hunminjeongeum. (1446). Choson davri rasmiy nashri.
3. Хан В. С. История Кореи / В. С. Хан. – Ташкент: «Baktria press», 2013. – 128 с.: ил.
4. Курбанов С. О. История Кореи (с древности до начала XX века): учебник. – СПб., 2009. – 356 с.
5. 미래를 여는 한국의 역사 세트. (2011 년).
6. [외국인을 위한 한국어 읽기] 100. 간단히 읽는 한국의 역사 2. (2014 년).
7. Исследование корейской истории через Мировое Культурное Наследие. (2006).
8. 조선왕조실록 (Joseon Wangjo Sillok) – Choson sulolasi yilnomalari.
9. 한국의 역사 3. (2001 년).

10. Korea.net. About Korea – Culture – UNESCO. Retrieved from:  
<https://www.korea.net/AboutKorea/Culture/UNESCO>